

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARIDA MASOFAVIY TA’LIMDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

*Buxoro davlat pedagogika instituti  
“Tabiiy fanlar” fakulteti o‘qituvchisi  
Shadiyeva Nigora Sharipovna  
“Tabiiy fanlar” fakulteti talabasi  
Xodjaniyozova Shoxsnam Ergash qizi*

**Annotation.** Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim jarayonlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqozo etdi va ta’lim jarayonini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’limga kredit-modul tizimini joriy qilish, zamonaviy axborot tizimlari yordamida masofaviy ta’lim shaklining ilg‘or usullarini qo’llash ta’lim sifatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlari:** Masofaviy ta’lim, ZOOM, Blackboard Collabarate, Adobe Connect

**Аннотация.** Комплексные реформы, проведенные в системе образования нового Узбекистана, потребовали адаптации образовательных процессов к мировым стандартам и использования инновационных педагогических технологий в организации учебного процесса, внедрения кредитно-модульной системы в образовании. , использование передовых методов дистанционного обучения с помощью современных информационных систем имеет большое значение в обеспечении качества образования.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, ZOOM, Blackboard Collaborate, Adobe Connect

**Abstract.** Comprehensive reforms carried out in the education system of new Uzbekistan required the adaptation of educational processes to world standards and the use of innovative pedagogical technologies in the organization of the educational process, the introduction of a credit-modular system in education. , the use of advanced methods of distance learning with the help of modern information systems is of great importance in ensuring the quality of education.

**Keywords:** distance learning, ZOOM, Blackboard Collaborate, Adobe Connect.

Pandemiya davrida mamlakatimizning barcha oliy ta’lim muassasalari masofaviy ta’lim shakliga o’tkazildi. Ayni vaqtida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o‘qitishni tashkil etish, masofaviy ta’limning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish, ta’lim olish huquqini ta’minlash ta’lim berishning yangi uslublaridan foydalanish nihoyatda dolzarb masalalardan biri hisoblaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida ko‘pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid O‘zbekiston tashabbusiga yana bir bor jahon hamjamiatining e’tiborini qaratganlarida ham

muhim bir ma’no bor. Shu bois, unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo‘lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta’lim olishini ta’minalash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi[1].

Talabalarga masofadan ta’lim berishda ilg‘or texnologiyalardan kengroq va chuqurroq foydalanish, masofaviy ta’limning huquqiy asosini ishlab chiqishimizni taqozo etmoqda. Ta’limning barcha bosqichlarida va shakllarida masofaviy ta’limning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va talabalarga masofaviy ta’lim berish jarayoni yangicha yondashuvni talab qilmoqda [2].

Hozirda hayotning deyarli barcha sohalari kompyuter va axborot texnologiyalari ta’sirida tubdan o‘zgardi. Bu kabi o‘zgarish ta’lim sohasida ham o‘z aksini topdi va an’anaviy ta’lim shakllari bilan bir qatorda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta’lim shakli ham paydo bo‘ldi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Masofaviy ta'limning asosiy toifalari

O‘quv mashg‘ulotlari o‘quv rejasida belgilanganidek, onlayn yoki oflaysiz rejimda ham sinxron, ham asinxron tarzda o‘tkazilishi mumkin.

Masofaviy ta’lim ba’zan ham sinxron, ham asinxron, ya’ni ikkala turning qorishiq (gibrild) shaklda bo‘lishi mumkin [3].

Ruxsat etilgan onlayn kurslar talabalarda oldindan rejalahtirilgan dars mashg‘ulotlarini ma’lum bir sur’atda bajarishlari kerak. Ushbu tadbirlar ko‘pincha suhbatlar va munozarali forumlarni o‘z ichiga oladi. Ruxsat etilgan vaqt onlayn kurslar talabalarning o‘zaro ta’sirini rag‘batlantiradi.

Xorijiy tajribalarga qaralganda, masofaviy ta’limning asosiy ishtirokchilariga odatda talabalar, professor-o‘qituvchilar, moderator, tyutor, edvayzer, fasilitatorlar, invigilator, yordamchi xodimlar va ma’murlar kiradi, ularning har biri alohida mihim ahamiyatga ega. Talabalarning o‘quv ehtiyojlarini qondirish har bir samarali masofaviy ta’lim dasturining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta’lim mazmunidan qat’iy nazar, talabaning asosiy roli o‘rganishdir.

Respublikamiz olimlaridan O.Musurmonova, Sh.Sharipov, Sh.Mardonov, S.Nishonova, D.Ro‘ziyeva, B.Xodjayev, D.Sharipova, M.Quronov, A.Nurmanov, S.Annamuratova va boshqalar tomonidan ijodkor shaxsni tarbiyalashning umumpedagogik jihatlari tadqiq etilgan [6].

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchi olimlarning ishlarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha ta’lim oluvchilarning kreativ kompetentligini turli usullar tajribasidan o‘tkazib, obyektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvaldan yozib olingan videoma’ruzalar ta’lim oluvchilarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish uchun sharoit yaratsa, maksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi[5].

Mohiyatiga ko‘ra, masofaviy ta’limning tashkil etilishi bir qator iqtisodiy masalalarning ijobiy hal qilinishiga bog‘liq.

Ta’lim sohasi mutaxassislarining hisob-kitobi bo‘yicha endilikda oliygochlarning ko‘pchiligi odatdagi o‘qitish shakliga qaytishni xohlasmaydi. Talabalarni ham an’anaviy (klassik) ma’ruza darslar bilan qiziqtirish mushkul bo‘lib qoladi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga innovatsion tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur hisoblaniladi:

1. Geografiya ta’lim yo‘nalishining malaka talablarida ko‘rsatilgan umumtexnik ko‘nikmalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, videodarslar, virtual laboratoriya va stendlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

2. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishda o‘quv axborotlarini mustaqil izlash va tanlash jarayoniga faol jalb etish, o‘qitish metodlarini o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikalariga integrativ singdirish lozim.

3. Talabalarni mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan fanlarni daturiy ta’lim vositalari orqali o‘qitishda, bo‘lajak mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik va metodik talablarini amalga oshirishning maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlarni qamrab olgan takomillashtirilgan model asosida o‘qitishni ommalashtirish tavsiya etiladi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. A.R.Jo‘rayev, N.Sh.Shadiyeva. Совершенствование электронного программного и методического обеспечения учебного процесса по профильным предметам.// “Ilm sarchashmalari”. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 11 . Urganch sh. 111-115 b.

2. N.Sh.Shadyeva. Role of software educational tools in preparing future teachers professional activity.// Actual Problems of modern science, education and training. Elektronic

journal of actual problems of modern science, education and training. November, 2022 11. ISSN2181-9750 “Zamonaviy fan ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari” Ilmiy jurnal. 21-28 b.

3. A.R.Jo‘rayev, N.Sh.Shadiyeva. Dasturiy ta‘lim vositalari asosida talabalarning geografik obyektlarni 3d loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli.// Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 2. b.149-155

4. Шадыева Н.Ш. Совершенствование электронно-программно - методического обеспечения учебного процесса специальных наук // International Conference On Higher Education Teaching. Hosted from Hamburg, Germany. 1 (8) Avgust 2023 y. Retrieved from. P. 54–56.

5. N.Sh.Shadiyeva. Model of development of competences of students in the field of three-dimensional design and modeling of geographical objects on the basis of educational software tools // International Conference on Management, Economics & Social Science, 1(5), Hosted from Hamburg, Finland. Avgust 2023 y. Retrieved from. P. 8–11.

6. Shadiyeva N.Sh. “Software Tools” in the Training of Geography Teachers in the Profession. // Journal of Innovation, Creativity and Art. 2023 y. 2 (1), P. 64–67.